

G'AYRIQONUNYI NARKOLABORATORIYA TASHKIL ETISH JINOYATINING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI

Usmonova Bonuxon Qaxramon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21727412>

Annotatsiya. Mazkur maqolada g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining jinoyat-huquqiy tavsifi tahlil qilingan. Unda mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, jinoyat tarkibining asosiy elementlari, shuningdek, qilmishni kvalifikatsiya qilishda uchraydigan ayrim muammolar yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xorijiy davlatlar tajribasi asosida ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishning ayrim jihatlari ko'rib chiqilib, qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: g'ayriqonuniy narkolaboratoriya, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar, jinoyat-huquqiy tavsif, kvalifikatsiya, jinoiy javobgarlik.

Аннотация. В данной статье проведен анализ уголовно-правовой характеристики преступления, связанного с организацией незаконной нарколаборатории. Рассмотрены общественная опасность данного деяния, основные элементы состава преступления, а также отдельные проблемы квалификации. На основе законодательства Республики Узбекистан и зарубежного опыта исследованы некоторые аспекты противодействия указанному виду преступлений и предложены направления совершенствования действующего законодательства.

Ключевые слова: незаконная нарколаборатория, наркотические средства, психотропные вещества, прекурсоры, уголовно-правовая характеристика, квалификация преступления, уголовная ответственность.

Abstract. This article analyzes the criminal law characteristics of the offense of organizing an illegal drug laboratory. It examines the social danger of this crime, the main elements of its legal composition, and certain issues arising in its legal qualification. Based on the legislation of the Republic of Uzbekistan and the experience of foreign countries, the article discusses several aspects of combating this type of crime and proposes recommendations for improving the existing legal framework.

Keywords: illegal drug laboratory, narcotic drugs, psychotropic substances, precursors, criminal law characteristics, legal qualification, criminal liability.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab davlatlarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning eng daromadli yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Mazkur jarayonda ayniqsa sintetik giyohvandlik vositalarining noqonuniy ishlab chiqarilishi kengayib, ularni tayyorlash uchun maxsus jihozlangan narkolaboratoriyalar soni ortib bormoqda. Ilgari asosan tabiiy giyohvandlik vositalarini yetishtirish va tarqatish ustun bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda kimyoviy laboratoriyalar sharoitida sintetik moddalarni ishlab chiqarish jinoyatchilar uchun iqtisodiy jihatdan ancha foydali faoliyatga aylangan.

Narkolaboratoriyalar odatda yashirin binolar, xususiy uylar, ishlab chiqarish sexlari yoki tashlandiq obyektlarda tashkil etilib, ularda zamonaviy laboratoriya uskunalari, kimyoviy reaktivlar va prekursorlardan foydalaniladi. Ushbu laboratoriyalar qisqa vaqt ichida katta miqdorda giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning faoliyati

nafaqat aholi salomatligi, balki jamoat xavfsizligi, ekologiya va davlat xavfsizligiga ham jiddiy tahdid tug'diradi.

BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda dunyo bo'yicha sintetik giyohvandlik vositalari ishlab chiqarilishi sezilarli darajada ortgan. Ayniqsa metamfetamin, mefedron, MDMA va boshqa sintetik moddalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yashirin laboratoriyalar sonining ko'payishi xalqaro hamjamiyatni tashvishga solayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan keng qamrovli normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Shunga qaramay, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro transport yo'laklarining kengayishi hamda transmilliy jinoyatchilikning yangi shakllari paydo bo'lishi natijasida narkolaboratoriyalar faoliyatini aniqlash va ularga huquqiy baho berish masalalari yanada dolzarb tus olmoqda.

Mazkur jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki ayrim hollarda giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki sotish bilan bog'liq harakatlar narkolaboratoriya tashkil etish bilan bog'liq harakatlardan to'liq farqlanmaydi. Natijada jinoyatning yuridik tavsifi noto'g'ri belgilanib, qilmishga noto'g'ri huquqiy baho berilishi mumkin.

Shu sababli g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining jinoyat-huquqiy tavsifini ilmiy asosda o'rganish, uning obyektiv va subyektiv belgilarini aniqlash, amaliyotda uchrayotgan kvalifikatsiya muammolarini tahlil qilish hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

1. G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining tushunchasi va ijtimoiy xavfliligi

Jinoyat huquqida har qanday qilmishning huquqiy tavsifini belgilashda, avvalo, uning mazmun-mohiyatini ochib berish muhim hisoblanadi. "Narkolaboratoriya" tushunchasi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida alohida huquqiy ta'rif sifatida mustahkamlanmagan. Shu sababli mazkur tushunchaning mazmunini xalqaro hujjatlar, maxsus qonunchilik va ilmiy adabiyotlar asosida aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy manbalarda narkolaboratoriya deganda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini noqonuniy ravishda ishlab chiqarish, qayta ishlash, sintez qilish yoki tayyorlash uchun maxsus moslashtirilgan bino, inshoot yoki boshqa joy tushuniladi. Bunday laboratoriyalar ko'pincha kimyoviy uskunalar, laboratoriya jihozlari, prekursorlar hamda maxsus texnologik vositalar bilan ta'minlangan bo'ladi.

Narkolaboratoriyalarning asosiy maqsadi noqonuniy daromad olish hisoblanadi. Mazkur faoliyat uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan amalga oshirilishi natijasida ularning iqtisodiy imkoniyatlari kengayib, boshqa og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etish uchun moliyaviy manbalar shakllanadi. Shu jihatdan narkolaboratoriyalar nafaqat giyohvandlik jinoyatlarining, balki transmilliy uyushgan jinoyatchilikning ham muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfliligi bir necha omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, narkolaboratoriyalar faoliyati aholining hayoti va sog'lig'iga bevosita zarar yetkazadi.

Ishlab chiqarilgan sintetik giyohvandlik vositalari inson organizmiga qisqa muddat ichida kuchli qaramlik hosil qilishi, ruhiy va jismoniy salomatlikka og'ir zarar yetkazishi bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, narkolaboratoriyalar yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy sintetik moddalar arzon narxda ishlab chiqarilishi va internet orqali tez tarqatilishi ularning iste'molchilari sonining ortishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, laboratoriyalarda foydalaniladigan kimyoviy moddalar portlash, yong'in va zaharlanish xavfini yuzaga keltiradi. Ko'plab davlatlar amaliyotida noqonuniy narkolaboratoriyalarda sodir bo'lgan portlashlar oqibatida insonlar halok bo'lgan yoki og'ir tan jarohati olgan holatlar qayd etilgan.

To'rtinchidan, narkolaboratoriyalar faoliyati davlat iqtisodiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Noqonuniy daromadlarni legallashtirish, korrupsion aloqalarning shakllanishi, soliq tushumlarining kamayishi va uyushgan jinoyatchilikning moliyaviy bazasi mustahkamlanishi ushbu jinoyatning eng xavfli oqibatlari sirasiga kiradi.

Beshinchidan, ushbu jinoyat xalqaro xavfsizlikka ham tahdid soladi. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi ko'pincha bir necha davlat hududini qamrab oluvchi jinoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli narkolaboratoriyalarga qarshi kurash faqat milliy emas, balki xalqaro hamkorlikni ham talab etadi.

2. G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining jinoyat-huquqiy tavsifi

Jinoyat-huquqiy tavsif muayyan qilmishning yuridik tabiatini ochib berishga hamda jinoyat tarkibini tashkil etuvchi obyektiv va subyektiv belgilarni tizimli ravishda o'rganishga xizmat qiladigan ilmiy-huquqiy kategoriyadir. Bunday tavsif orqali qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi, jinoyat qonunida nazarda tutilgan belgilari, jinoiy javobgarlikning asoslari hamda mazkur qilmishni boshqa turdosh jinoyatlardan ajratib turuvchi xususiyatlar aniqlanadi.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish bilan bog'liq qilmishlarga to'g'ri huquqiy baho berish sud-tergov amaliyotida muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur jinoyat ko'pincha giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari yoki kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish yoxud o'tkazish bilan bog'liq boshqa jinoyatlar bilan uzviy aloqada sodir etiladi.

Shu sababli g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining huquqiy mohiyatini to'liq ochib berish uchun uning obykti, obyektiv tomoni, subykti va subyektiv tomonini alohida tahlil qilish zarur.

2.1. Jinoyatning obykti

Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra, jinoyat obykti deganda jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan hamda jinoiy tajovuz natijasida zarar yetkaziladigan yoki zarar yetkazilish xavfi ostida qoladigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining asosiy bevosita obykti fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Chunki narkolaboratoriya tashkil etilishi giyohvandlik vositalari va boshqa taqiqlangan moddalarni noqonuniy ravishda ishlab chiqarishga sharoit yaratib, ularning aholi orasida tarqalishi va iste'mol qilinishi xavfini kuchaytiradi.

Mazkur jinoyatning qo'shimcha obyektlari sifatida jamoat xavfsizligi, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi, ekologik xavfsizlik hamda giyohvandlik vositalari va

psixotrop moddalar muomalasi ustidan davlat tomonidan o'rnatilgan nazorat tartibini ko'rsatish mumkin.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etishning bir nechta ijtimoiy munosabatlarga bir vaqtning o'zida xavf tug'dirishi uning yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligini namoyon etadi.

Bunday laboratoriyalarda tegishli texnika va xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasdan kimyoviy moddalar bilan ishlanishi portlash, yong'in, zaharlanish, zararli chiqindilarning tarqalishi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ayniqsa, narkolaboratoriya ko'p qavatli uyda, aholi yashaydigan xonadonda, yerto'lada, garajda yoki boshqa jamoat joylariga yaqin hududda tashkil etilgan bo'lsa, uning faoliyati nafaqat bevosita jinoyat ishtirokchilari, balki atrofdagi fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun ham jiddiy xavf tug'diradi.

Bundan tashqari, noqonuniy narkolaboratoriyalar faoliyati uyushgan jinoyatchilikning iqtisodiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. G'ayriqonuniy ishlab chiqarilgan sintetik giyohvandlik vositalarini sotishdan olingan daromadlar boshqa jinoiy faoliyatni moliyalashtirish, yangi laboratoriyalar tashkil etish, noqonuniy mahsulotlarni tarqatish tarmoqlarini kengaytirish yoki jinoiy guruhlarining moddiy bazasini mustahkamlash uchun ishlatilishi mumkin.

Shu jihatdan mazkur qilmish faqat fuqarolar sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyat sifatida emas, balki jamoat, iqtisodiy va milliy xavfsizlikka ham bilvosita tahdid soluvchi qilmish sifatida baholanishi mumkin. Demak, g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining ko'p obyektli xususiyati uning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiruvchi muhim belgilardan biridir.

2.2. Jinoyatning obyektiv tomoni

Jinoyatning obyektiv tomoni uning tashqi namoyon bo'lishini ifodalovchi belgilar majmuidir. U ijtimoiy xavfli qilmish, jinoiy oqibat, qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek, jinoyatni sodir etish joyi, vaqti, usuli, sharoiti, quroli va vositalarini qamrab olishi mumkin.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining obyektiv tomoni, eng avvalo, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari yoki kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash yoxud qayta ishlashga mo'ljallangan laboratoriyani tashkil etishga qaratilgan faol harakatlarda ifodalanadi.

Narkolaboratoriyani tashkil etish quyidagi harakatlarda namoyon bo'lishi mumkin:

- laboratoriya uchun bino, xona yoki boshqa yashirin joyni topish, ijaraga olish yoki tayyorlash;
- joyni noqonuniy ishlab chiqarish faoliyatiga moslashtirish;
- maxsus laboratoriya uskunalari, texnik vositalar va idishlarni o'rnatish;
- prekursorlar, kimyoviy moddalar va boshqa zarur xomashyoni to'plash;
- elektr energiyasi, suv, shamollatish va boshqa zarur texnik sharoitlarni yaratish;
- ishlab chiqarish texnologiyasini tanlash va texnologik jarayonni yo'lga qo'yish;
- laboratoriya faoliyatiga jalb etiladigan shaxslarning vazifalarini taqsimlash;
- laboratoriya faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish yoki boshqarish.

Mazkur harakatlarning barchasi yagona maqsadga, ya'ni qonunda nazarda tutilgan moddalarni g'ayriqonuniy ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash yoki qayta ishlash uchun zarur sharoit yaratishga qaratiladi.

Amaliyotda "narkolaboratoriya tashkil etish" tushunchasining mazmunini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega.

Chunki laboratoriya uchun bino ijaraga olish yoki alohida uskuna sotib olishning o'zi har doim ham tamom bo'lgan jinoyat mavjudligini anglatmaydi. Bunday harakatlarga huquqiy baho berishda joyning qay darajada moslashtirilgani, uskunalarining o'rnatilgani, zarur moddalar va xomashyoning mavjudligi hamda ishlab chiqarishni boshlash uchun real imkoniyat yaratilganligi aniqlanishi lozim.

Masalan, shaxs faqat bino ijaraga olgan, biroq uni ishlab chiqarishga moslashtirmagan, zarur uskuna va moddalarni joylashtirmagan bo'lsa, uning qilmishi aniq vaziyatga qarab jinoyatga tayyorgarlik sifatida baholanishi mumkin. Agar bino maxsus moslashtirilgan, uskunalar o'rnatilgan, kimyoviy moddalar va prekursorlar to'plangan hamda ishlab chiqarish jarayonini boshlash uchun zarur sharoit yaratilgan bo'lsa, qilmishni tamom bo'lgan jinoyat sifatida baholash uchun asoslar yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan, jinoyatning tamom bo'lish vaqtini aniqlashda giyohvandlik vositasi yoki boshqa taqiqlangan moddaning amalda ishlab chiqarilganligi yagona hal qiluvchi mezon bo'la olmaydi. Asosiy e'tibor laboratoriyaning funksional jihatdan tayyorligi va noqonuniy ishlab chiqarishni boshlash uchun real sharoit yaratilganligiga qaratilishi kerak.

Mazkur jinoyat obyektiv tomonining yana bir xususiyati uning faol harakatlar orqali sodir etilishidir. Shaxs narkolaboratoriyaning tashkil etish uchun joy tanlaydi, uni jihozlaydi, zarur vositalarni to'playdi yoki boshqa tashkiliy harakatlarni bajaradi. Biroq ayrim holatlarda shaxsning laboratoriya faoliyatini davom ettirishga qaratilgan harakatlari, masalan, uni zarur moddalar bilan ta'minlash, uskunalarini ish holatida saqlash yoki faoliyatni boshqarish ham huquqiy baholashni talab qiladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda shaxs tomonidan amalga oshirilgan barcha harakatlar o'zaro bog'liq holda, yagona jinoiy maqsad doirasida kompleks baholanishi lozim. Faqat ayrim uskuna yoki kimyoviy moddalar topilganligi emas, balki ularning vazifasi, joylashtirilish tartibi, ishlab chiqarish uchun yaroqliligi va shaxsning maqsadi ham aniqlanishi zarur.

2.3. Jinoyat subyekti

Jinoyat subyekti jinoyat sodir etgan, qonunda belgilangan jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan va aqli raso bo'lgan jismoniy shaxsdir. Shaxsning jinoyat subyekti deb topilishi uchun u o'z harakatlarining mazmunini anglash va ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatining subyekti umumiy subyekt hisoblanadi. Mazkur jinoyatni sodir etgan shaxsdan muayyan kasb, lavozim, bilim yoki boshqa maxsus belgilarga ega bo'lish talab etilmaydi. Shu bilan birga, narkolaboratoriyaning murakkab texnik va kimyoviy jarayonlarga asoslanganligi sababli amaliyotda ushbu qilmishga maxsus bilimga ega shaxslar jalb etilishi mumkin.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyati bir shaxs tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lsa-da, amaliyotda u ko'pincha bir guruh shaxslar tomonidan oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Chunki narkolaboratoriya tashkil etish joy topish, mablag' ajratish, uskuna va kimyoviy moddalarni yetkazib berish, ishlab chiqarishni amalga oshirish, tayyor mahsulotni saqlash va tarqatish kabi bir nechta vazifalarning bajarilishini talab qiladi.

Bunday jinoiy faoliyatda quyidagi shaxslar ishtirok etishi mumkin:

- narkolaboratoriyaning tashkil etuvchi va umumiy faoliyatni boshqaruvchi shaxs;
- laboratoriya uchun bino yoki boshqa joy topuvchi shaxs;
- faoliyatni moliyalashtiruvchi shaxs;
- maxsus uskuna va texnik vositalarni yetkazib beruvchi shaxs;
- kimyoviy moddalar va prekursorlarni topuvchi yoki yetkazib beruvchi shaxs;

- kimyoviy jarayonni amalga oshiruvchi mutaxassis, kimyogar yoki texnolog;
- laboratoriya faoliyatini qo'riqlovchi yoki yashiruvchi shaxs;
- tayyor mahsulotni saqlovchi, tashuvchi yoki o'tkazuvchi shaxs.

Bunday holatlarda har bir ishtirokchining harakatlariga bir xil huquqiy baho berish mumkin emas. Ularning jinoyatdagi roli, umumiy jinoiy rejadan xabardorligi, bajargan vazifasi, qasdining mazmuni va jinoyat natijasiga qo'shgan hissasi alohida aniqlanishi kerak.

Masalan, laboratoriya uchun bino ijaraga bergan shaxs bu joydan qanday maqsadda foydalanilishini bilmagan bo'lsa, uni jinoyat ishtirokchisi deb topish mumkin emas. Xuddi shuningdek, uskunalarni qonuniy savdo doirasida sotgan yoki transport xizmatini ko'rsatgan shaxs ham narkolaboratoriyaning asl maqsadidan bexabar bo'lgan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozim.

Aksincha, shaxs noqonuniy ishlab chiqarish maqsadini bilgan holda bino, uskuna, kimyoviy modda, transport yoki boshqa vositalarni taqdim etgan bo'lsa, uning harakatlari jinoyatda ishtirok etishning tegishli shakli sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli jinoyat subyektini aniqlashda shaxsning faqat tashqi harakatlari emas, balki uning qasdi va umumiy jinoiy rejaga munosabati ham isbotlanishi zarur.

2.4. Jinoyatning subyektiv tomoni

Jinoyatning subyektiv tomoni shaxsning sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishga va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabatini ifodalaydi. U ayb, motiv, maqsad va ayrim hollarda shaxsning hissiy holati kabi belgilarni o'z ichiga oladi.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyati qasddan sodir etiladi. Shaxs o'z harakatlarining g'ayriqonuniy xususiyatini anglaydi, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari yoki kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni ishlab chiqarish, tayyorlash yoxud qayta ishlash uchun noqonuniy laboratoriya tashkil etayotganini biladi va shunday faoliyatni amalga oshirishni istaydi.

Mazkur jinoyatda ayb, odatda, to'g'ri qasd shaklida namoyon bo'ladi. Chunki narkolaboratoriyaning tashkil etish bir qator izchil va maqsadli harakatlarni bajarishni talab qiladi.

Joyni tanlash, uni yashirin faoliyatga moslashtirish, uskuna va kimyoviy moddalarni to'plash, ishlab chiqarish texnologiyasini belgilash kabi harakatlarning tasodifan sodir etilishi mumkin emas.

Shaxs narkolaboratoriya tashkil etish orqali noqonuniy moddalarni ishlab chiqarishga zarur sharoit yaratayotganini anglaydi va aynan shunday natijaga erishishni xohlaydi. Shu sababli ehtiyotsizlik orqali mazkur jinoyatni sodir etish mumkin emas.

Jinoyatning subyektiv tomonini aniqlashda maxsus maqsad muhim ahamiyatga ega.

Laboratoriya giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari yoki kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash yoxud qayta ishlash maqsadida tashkil etilgan bo'lishi kerak. Agar joy boshqa qonuniy faoliyat uchun tashkil etilgan bo'lsa va undan noqonuniy maqsadda foydalanilishi shaxsga ma'lum bo'lmasa, mazkur jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

Jinoyatning motivi ko'pincha moddiy manfaatdorlikdan iborat bo'ladi. Sintetik giyohvandlik vositalari va boshqa noqonuniy moddalarni ishlab chiqarish hamda sotish katta miqdorda noqonuniy daromad olish imkonini berishi mumkin. Shu sababli narkolaboratoriya tashkil etishda boylik orttirish, daromad olish yoki boshqa moddiy manfaatlarga erishish keng tarqalgan motiv sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq moddiy manfaatdorlik mazkur jinoyat tarkibining majburiy belgisi hisoblanmaydi.

Shaxs jinoiy guruh rahbarining topshirig'ini bajarish, boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlash, qaramlik yoki boshqa sabablar tufayli ham narkolaboratoriya tashkil etishda qatnashishi mumkin. Shu bois motivning turlicha bo'lishi qilmishni jinoyat sifatida baholashga to'sqinlik qilmaydi.

Shu bilan birga, shaxsning laboratoriya faoliyatining asl mohiyatidan xabardorligi aniq isbotlanishi kerak. Masalan, oddiy ta'mirlash ishlarini bajargan, yuk tashigan yoki uskunani yetkazib bergan shaxs bu vositalar narkolaboratoriya uchun mo'ljallanganini bilmagan bo'lsa, uning harakatlarida mazkur jinoyatga nisbatan qasd mavjud bo'lmaydi.

Subyektiv tomon shaxslarning yozishmalari, o'zaro suhbatlari, jinoiy rejalar, moliyaviy operatsiyalar, uskunalarni yashirin ravishda sotib olish, kimyoviy moddalarni to'plash, xavfsizlik choralari ko'rish va boshqa dalillar majmui asosida aniqlanishi mumkin.

Demak, g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda shaxsning motividan ko'ra uning noqonuniy laboratoriya tashkil etayotganini anglaganligi, ushbu faoliyatda qasddan ishtirok etganligi va giyohvandlik vositalari yoki boshqa tegishli moddalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadini ko'zlaganligi asosiy ahamiyat kasb etadi.

3. G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyatini kvalifikatsiya qilishning ayrim muammolari

Jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish jinoyat huquqining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qilmishga noto'g'ri huquqiy baho berilishi aybdorning javobgarligi noto'g'ri belgilanishiga, jabrlanuvchilar va jamiyat manfaatlarining yetarli darajada himoya qilinmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish bilan bog'liq qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibining barcha elementlarini har tomonlama tahlil qilish talab etiladi.

Amaliyotda uchraydigan muammolardan biri "narkolaboratoriya tashkil etish" tushunchasining mazmunini aniqlash bilan bog'liq. Ayrim hollarda shaxs laboratoriya uchun bino ijaraga oladi, zarur uskunalarni olib keladi yoki prekursorlarni yig'adi. Biroq giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish hali boshlanmagan bo'ladi. Bunday vaziyatda qilmishni tamom bo'lgan jinoyat sifatida yoki jinoyatga tayyorgarlik bosqichi sifatida baholash masalasi yuzaga keladi.

Nazariyada jinoyatga tayyorgarlik jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratishga qaratilgan harakatlar sifatida tavsiflanadi. Agar shaxs faqat laboratoriya uchun jihozlar xarid qilgan yoki bino tayyorlagan bo'lsa, lekin ishlab chiqarish jarayoni boshlanmagan bo'lsa, qilmishning huquqiy bahosi har bir ishning aniq holatlaridan kelib chiqib belgilanishi lozim.

Ikkinchi muammo narkolaboratoriya tashkil etish bilan giyohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish o'rtasidagi chegarani aniqlash bilan bog'liq. Mazkur qilmishlar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning huquqiy tavsifi bir xil emas. Narkolaboratoriya tashkil etish ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yishga qaratilgan tashkiliy faoliyatni ham qamrab oladi. Noqonuniy ishlab chiqarish esa bevosita giyohvandlik vositalarini tayyorlash yoki sintez qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Shu sababli kvalifikatsiya qilishda har bir harakatning mazmuni va maqsadini alohida baholash zarur.

Amaliyotda yana bir murakkab masala bir necha shaxs ishtirok etgan holatlarda ularning harakatlarini baholash bilan bog'liq. Narkolaboratoriyalar odatda rollar taqsimlangan holda faoliyat yuritadi. Kimdir laboratoriya uchun joy topadi, boshqasi uskunalarni o'rnatadi, uchinchi shaxs kimyoviy moddalarni yetkazib beradi, yana boshqasi tayyor mahsulotni realizatsiya qiladi.

Bunday hollarda har bir ishtirokchining qilmishi Jinoyat kodeksining ishtirokchilikka oid qoidalari asosida alohida baholanishi lozim.

Shuningdek, laboratoriya faoliyati natijasida ishlab chiqarilgan giyohvandlik vositalari keyinchalik noqonuniy saqlangan, tashilgan yoki sotilgan bo'lsa, jinoyatlar jami masalasi ham yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda bir qilmish ikkinchi qilmish bilan qamrab olinadimi yoki mustaqil kvalifikatsiya qilinadimi, degan savolga jinoyat qonunchiligi va sud amaliyoti asosida javob berilishi zarur.

Mazkur masalalarni hal etishda jinoyat qonunining mazmuni, jinoyat tarkibining elementlari hamda sodir etilgan qilmishning haqiqiy holatlari o'zaro uyg'un holda baholanishi muhim ahamiyatga ega.

4. Xorijiy davlatlar tajribasi va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy ishlab chiqarilishi dunyoning deyarli barcha davlatlarida jiddiy muammo sifatida e'tirof etiladi.

Ayniqsa, sintetik giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan yashirin narkolaboratoriyalar sonining ortib borishi davlatlarni ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirishga undamoqda.

AQShda narkolaboratoriyalarni tashkil etish va ulardan foydalanish bilan bog'liq jinoyatlar federal darajada og'ir jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Jinoyatni sodir etishda foydalanilgan uskunalar, kimyoviy moddalar hamda noqonuniy daromadlar musodara qilinadi.

Bundan tashqari, laboratoriya faoliyati natijasida atrof-muhitga zarar yetkazilgan bo'lsa, ekologik qonunchilik asosida ham javobgarlik yuzaga keladi.

Germaniya qonunchiligida giyohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish bilan bog'liq harakatlarga nisbatan qat'iy javobgarlik belgilangan.

Kimyoviy moddalar muomalasi ustidan davlat nazoratining kuchli yo'lga qo'yilgani noqonuniy laboratoriyalar tashkil etilishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Qozog'iston va Rossiya tajribasida ham narkolaboratoriyalarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir qatorda bojxona, sanitariya va ekologiya organlarining hamkorligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Mazkur tajriba davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvining samaradorligi jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan huquqiy asoslar mavjud.

Biroq sintetik giyohvandlik vositalarining keng tarqalishi va yashirin narkolaboratoriyalar faoliyatining murakkablashib borayotgani qonunchilikni muntazam takomillashtirib borishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tushunchasini qonunchilikda aniq belgilash;

narkolaboratoriya tashkil etishga tayyorgarlik harakatlarini baholash mezonlarini yanada aniqlashtirish;

prekursorlar muomalasi ustidan nazoratni kuchaytirish;

kimyoviy moddalar savdosini raqamli monitoring qilish tizimini joriy etish;

aholining, ayniqsa yoshlarning giyohvandlik vositalarining zararli oqibatlari to'g'risidagi huquqiy bilimlarini oshirish.

Mazkur chora-tadbirlar giyohvandlik vositalarining noqonuniy ishlab chiqarilishi va tarqalishining oldini olishga xizmat qiladi.

XULOSA

G'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish jinoyati zamonaviy sharoitda giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishidagi eng xavfli ko'rinishlardan biri hisoblanadi. Bunday laboratoriyalarda ishlab chiqarilgan sintetik giyohvandlik vositalari qisqa muddat ichida keng hududlarga tarqalishi, inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi hamda uyushgan jinoyatchilikning moliyaviy manbalaridan biriga aylanishi bilan alohida xavf tug'diradi.

Maqolada ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, jinoyat-huquqiy tavsifi hamda jinoyat tarkibining asosiy elementlari tahlil qilindi. Shuningdek, qilmishni kvalifikatsiya qilish jarayonida uchraydigan ayrim muammolar ko'rib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaliyotda narkolaboratoriya tashkil etish bilan bog'liq harakatlarni giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, saqlash yoki o'tkazish bilan bog'liq boshqa jinoyatlardan to'g'ri farqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi narkolaboratoriyalarga qarshi kurashishda kompleks yondashuv samarali natija berishini ko'rsatadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida ham qonunchilikni takomillashtirish, prekursorlar muomalasi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda profilaktik chora-tadbirlarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

G'ayriqonuniy narkolaboratoriyalar faoliyatining oldini olish nafaqat jinoyat-huquqiy choralarni qo'llashni, balki huquqiy targ'ibot, xalqaro hamkorlik va zamonaviy nazorat mexanizmlarini rivojlantirishni ham talab etadi. Faqat kompleks yondashuv orqaligina ushbu turdagi jinoyatlar ko'lamini kamaytirish va jamiyat xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1961). *Single Convention on Narcotic Drugs, 1961*. New York, NY: United Nations.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1971). *Convention on Psychotropic Substances, 1971*. Vienna: United Nations.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1988). *United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances*. Vienna: United Nations.
4. O'zbekiston Respublikasi. (1992). *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi. (1994). *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi*. <https://lex.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi. (1999). *Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi Qonun*. <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi. (2014). *Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi Qonun*. <https://lex.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. (2017). *Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi Plenum qarori*. <https://lex.uz>
9. United Nations Office on Drugs and Crime. (2025). *World Drug Report 2025*. United Nations. <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/wdr2025.html>
10. Yo'ldoshev, M., & Rustambayev, M. H. (2021). *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi. Maxsus qism*. Toshkent: TDYU nashriyoti.